

**NEMIS TILIDAGI FITONIM KOMPONENTLI
FRAZEOLOGIZMLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI VA
ULARNING KELIB CHIQISHIDAGI OMILLAR**

Xamidova Tilovatxon Raxmatjonovna, o'qituvchi

Toshkent davlat agrar universiteti

Hamidova2023@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada nemis tilidagi fitonim komponentli frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari va ularning kelib chiqishidagi omillar yoritilgan. Hozirgi kunda tilshunoslik ilmda barchaning e'tiborini frazeologizm tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan ligvokulturologiya masalalari ko'pchilik olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda, shunday bo'lsa-da, o'z yechimini topmagan muammolar hali ko'p.

Kalit so'zlar: *Frazeologik birlik, frazeologik birliklarning milliy xususiyati, frazeologik birliklarning madaniy xususiyati, frazeologik birliklarning etimologiyasi, o'simlik nomlari qatnashgan iboralar.*

**NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS OF PHYTONYM-
COMPONENT PHRASEOLOGISMS IN GERMAN AND FACTORS IN
THEIR ORIGIN**

Khamidova Tilovatkhan Rakhmatzhonovna, teacher

Tashkent State Agrarian University

Annotation: This article discusses the national and cultural features of phraseological units with a phytonym component in the German language and the factors of their origin. Currently, the problems of linguoculturology related to the concept of phraseology in the science of linguistics are being studied by many scientists, but there are still many unresolved problems.

Key words: *phraseological unit, national character of phraseological unit, cultural peculiarity of phraseological unit, etymology of phraseological unit, expressions with plant names.*

**НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ
ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С ФИТОНИМИЧЕСКИМ КОМПОНЕНТОМ В
НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ И ФАКТОРЫ ИХ ПРОИСХОЖДЕНИЯ**

Хамидова Тиловатхон Рахматжоновна, учитель

Ташкентский государственный аграрный университет

Аннотация: В данной статье рассматриваются национально-культурные особенности фразеологизмов с фитонимическим компонентом в немецком языке и факторы их происхождения. В настоящее время проблемы лингвокультурологии, связанные с понятием фразеологизма в науке языкознании, изучаются многими учеными, однако остается еще много нерешенных проблем.

Ключевые слова: *фразеологизм, национальный характер фразеологизма, культурная особенность фразеологизма, этимология фразеологизма, выражения с названиями растений.*

KIRISH

Frazeologiya - bu tilshunoslikning nutqdagi barqaror iboralarni, shuningdek ularning individual muallif yoki ijtimoiy guruh tilidagi umumiylikni o'rganadigan bo'limidir.

Frazeologiya leksikologiyaning ajralmas qismi bo'lib, so'zni nutqning asosiy birligi sifatida, shuningdek tilning butun so'z boyligini uning xilma-xilligida o'rganadi. Shu nuqtai nazardan, tilning leksik tarkibi nafaqat individual mustaqil so'zlarni, balki majoziy ma'nosi so'z bilan bir xil bo'lgan butun barqaror iboralarni ham o'z ichiga oladi.

Bugungi kun nuqtai nazari bilan qaraganda, nemis tilidagi fitonim komponentli frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari va ularning kelib chiqishidagi omillarni o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Nutqimiz ko'rki bo'lmish frazeologik birliklarning tabiati rang-barangdir. Tilshunos olimlarimiz bu borada talaygina ilmiy ishlar olib borganlar. Chunonchi, frazeologizmlar semantikasi, stilistik funksiyasi, ayrim shoir va yozuvchilar asarlaridagi frazeologizmlar, ularning tarjima muammolari, frazeologik iboralar lug'atini tuzish shular jumlasidandir.

Frazeologik birliklarga nazar tashlar ekanmiz, ularning naqadar turli-tuman va shuningdek, so'z xazinasidan o'rin olishiga talaygina ekstralingvistik va lingvostilistik omillar sabab bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Har bir tilda, jumladan, hozirgi zamon nemis tilida o'z frazeologik iboralari bilan bir qatorda boshqa tillardan olingan frazeologik birliklar ham uchraydi. Lekin frazeologik birliklarning asosini o'sha tilning o'z frazeologik birlikari tashkil etadi, boshqa tillardan olingan frazeologik birliklar ozchilikni tashkil qiladi.

Frazeologik birliklar lug'at boyligidan turli usullar va omillar sabab o'rin olishi mumkin. Ularning yuzaga kelishida turli xil tarixiy voqea va hodisalar, geografik va demografik omillar, xalq og'zaki ijodi ta'sirida yuzaga kelgan, urf-odat va marosimlarga bog'liq bo'lgan, diniy-mifologik xarakterdagi ma'lum obrazlarni tilga olish o'rinlidir.

Frazeologik birliklarning milliy va madaniy xususiyatlarini aniqlash uning etimologiyasi bilan chambarchas bog‘liq.

TAHLIL VA NATIJALAR.

O‘simliklar dunyosi. Har bir tilda frazeologik birliklarning asosini geografik faktorlar: o‘simliklar, hayvonlar, qushlar tashkil etadi. Har bir mintaqaning o‘ziga xos o‘simlik va hayvonot dunyosi bor. Shu bilan birga har bir xalqda ma’lum o‘simlik va hayvon turi timsol, ramz sifatida qoraladi. Masalan, inglizlar landshaftiga “archagul (supurgi gul)” xos va u tez-tez badiiy adabiyotda qo‘llanib turiladi. Qayin daraxti rus millati uchun milliy ramz sanaladi.

XIV asr ohirida Germaniya o‘rmonlarida asosan Buche (qoraqayin daraxti), Eiche (eman daraxti), Heinbuche (grab-qayin daraxtining bir turi), Birnenbaum (nok, nashvati), Nußbaum (yong‘oq), Ahorn (zarang daraxti), Linde (lipa, arg‘uvon daraxti), Esche (shumtol daraxti), Apfelbaum (olma daraxti), Erle (olxa, zirk daraxti) bo‘lgan. Germaniya hududi Yevropaning markazida joylashgan. Bu hudud uchun aynan qoraqayin, eman, qarag‘ay daraxtlari o‘ziga xoslik kashf qiladi.

O‘rmon. O‘rmon dehqonlar hayotida katta rol o‘ynagan. Nemislarning qadimgi maqollaridan birida:

“Wo der Wald stirbt, stirbt das Volk” - Qayerda o‘rmon o‘lsa, o‘sha yerda xalq o‘ladi. Bu maqoldan ham ko‘rish mumkinki, o‘rmon ular uchun juda katta ahamiyatga ega.

Auf einen grünen Zweig (Ast) kommen - Yutuqni qo‘lga kiritmoq, muvaffaqiyatga erishmoq, muvaffaqiyat qozonmoq.

Bu frazeologizm XV asr adabiyotida qo‘llanilgan. Qizlar o‘z sevgisini yam-yashil yaproqqa tenglashtirganlar:

- Ich liebe dich ja... wie heißt es doch, wenn man einen Zweig abbricht und die Blätter abreist? Von Herzen, mit Schmerzen, über alle Massen... (Th. Fontane).

Aka-uka Grimmlarning “die drei grünen Zweige” ertagida ham yashil yaproq yangi hayot ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

Eiche. Eman daraxti kuch-qudrat ramzi sanaladi. Buni quyidagilardan ham ko‘rish mumkin:

Er stand fest wie eine Eiche - Emandek mustahkam

Er war stark wie eine Eiche - Emandek baquvvat

z.B.: “Die Loni, die Loni Fink von der Anlaufstelle an der Grenze treu wie Gold und stark wie Eiche” stellt der Stummel...das Mädel vor. (Fr.Wolf)

Viele Streiche fallen die Eiche - Tomchilagan suv toshni teshar.

Weizen (bug‘doy). Shimoliy Germaniyada bug‘doy asosiy ekin hisoblanadi. Avvallari bug‘doy yetishtirish uchun yerning unumdorligi juda yaxshi bo‘lishi lozim bo‘lgan va talaygina mehnat talab qilgan, bu ekindan olingan yaxshi hosil esa katta muvaffaqiyat, ulkan yutuq hisoblangan. Bug‘doy yetishtirishdagi bu holat maqollarda ham o‘z aksini topgan.

Dankbarkeit und Weizen gedeihen nur auf gutem Boden. - Minnatdorchilik va bug‘doy faqat yaxshi joyda o‘sadi.

jmds. Weizen blüht – taraqqiy qilmoq, ravnaq topmoq; omad kelmoq, ishi o‘ngidan kelmoq.

Bu frazeologizm XV asrdayoq adabiyotda qo‘llanilgan. Bug‘doydan olingan yaxshi hosil tinchlik, xotirjamlik ramzi sanaladi.

Den Weizen mit dem Unkraute ausjäten – Xaddan oshmoq.

Sabzavotchilik, bog‘dorchilik. Asosiy sabzavotchilik ekinlari - piyoz, sarimsoq piyoz, karam, lavlagi, sabzi, mevalardan esa uzum, olma, yong‘oq, olcha, nok.

Kohl (karam). Karamning foydaliligini odamlar ancha oldin payqashgan. Bir bosh karamda Mendeleyev jadvalidagi quyidagi elementlar: fosfor, kalsiy, marganets, magniy va temir moddalari mavjud. Mana shu xususiyatlari bilan u kartoshka paydo bo‘lgunga qadar sabzavot ekinlari orasida yetakchilik qilgan va muhim o‘rin egallagan. Shu bois nemis tilida karam komponentli ko‘plab frazeologizmlarni ko‘rish mumkin.

Aufgewärmter Kohl – eski ashula, eski hammom - eski tos. (so‘zma-so‘z: isitilgan karam).

Den alten Kohl wieder aufwärmen – Eski ashulasini aytmoq, hammasini boshidan boshlamoq. (soʻzma-soʻz: eski karamni isitmoq)

Das macht den Kohl nicht fett – Bu mushkul ahvoldan qutqarmaydi. (soʻzma-soʻz: bu karamni yogʻli qila olmaydi)

Seinen Kohl bauen - Chekka, odamlardan xoli joyda oddiygina yashamoq. (soʻzma-soʻz: Karam parvarish qilmoq)

Kohl machen – Ahmoqlik qilmoq, nomaʼqulchilik qilmoq.

Kohl reden – Bemaʼni gap gapirmoq, bekorchi gap aytmoq, safсата sotmoq.

z.B.: “Ich habe es ganz alleine kaputt gemacht. Das ist wahr.” – Mein Lieber, rede keinen Kohl, bat Lohmann (H. Mann “Professor Unrat”).

Unser Kohl schmeckt wohl (Spr.) - Har kimniki oʻziga, oy koʻrinar koʻziga (Maqol).

Tuzlangan karam azaldan nemislarda shifobaxsh sanalgan. Misol uchun, kim yangi yilda tuzlangan karam yesa, yil boʻyi sogʻlom boʻladi. Kingadir baxt – omad tilagan paytda, yaʼni tilak bildirayotganda:

leb wohl, iss Kohl - (soʻzma-soʻz: Yaxshi yasha, karam ye) deb aytishadilar.

Spargeal (sarsabil (oʻsimliklar)). Sarsabil - koʻxna sabzavot ekinlaridan biri. Sarsabilning ilk plantatsiyasi (yaxshi paravarish talab etiladigan katta ekinzor) Germaniyada (Stuttgartda) 1567 – yilga borib taqaladi. Sarsabil tansiq taom hisoblanadi. U chillaki (ertagi, erta pishar) sabzavot boʻlib, C vitaminiga juda boy. Sarsabilning shoxlari juda uzun boʻlgan.

Den Spargel quer essen können. – (soʻzma-soʻz: Sarsabilni koʻndalangiga yemoq.)

Lekin, bu frazeologizm quyidagi maʼnoni beradi: maqtanchoq, katta ogʻiz, kerilmajon.

Petersilie (petrushka, kashnich). Petrushka – keng tarqalgan sabzavot ekini. U nemis tili frazeologizmlari tarkibida quyidagi tarzda uchraydi:

einem die Petersilie verhaseln - Tuzlab ketmoq, boplab ketmoq

Petersilie auf allen Suppen sein – Koʻzga koʻrinmoq, hamma narsaga ulgurmoq.

Hopfen – xmel – (chirmashib o‘sadigan o‘simlik, urug‘i pivo tayyorlashda ishlatiladi). Germaniya shimolida iqlim tufayli sabzavot ekinlari yaxshi yetishtirilmaydi, lekin xmel yaxshi parvarishlanadi.

Arpadan qilingan pivo (xonaki pivo) hammaga ma‘lum va shu bilan birga qadim zamondan mavjud, lekin pivo pishirish uchun xmeldan o‘rta asrlarda foydalanilgan. Germaniyada birinchi xmel ekilgan yer XIII asrda vujudga kelgan. Xmelchilikni rivojlantirishning asosiy sababi – pivo pishirish bo‘lgan. XIV-XV asrlarda pivo pishirishning asosiy markazlari – Tyuringen, Saksoniya va Vestfaliya bo‘lgan. Xmel yetirishning intensivligi, aholi xayotidagi roli albatta tilga ta‘sir o‘tkazmay qolmaydi. Uni frazeologizmlar tizimida ham uchratish mumkin.

An j-m ist Hopfen und Malz verloren- behuda urinish.

da ist Hopfen und Malz verloren - bo‘lmaydigan ish.

Xmel – chirmashib o‘sadigan o‘simlikdir. Uning balandligi 5-8 m ga yetadi. Bu esa ayrim turg‘un birikmalarining paydo bo‘lishiga xizmat qiladi.

dürr (lang) wie eine Hopfenstange - (poya) xoda kabi ozg‘in (puch, bo‘sh).

Frazeologik iboralarning milliy va madaniy xususiyatlarini aniqlashda tarixiy voqea-hodisalar omilini tilga olish o‘rinlidir. Tarixiy voqea-hodisalar jumlasiga urushlar, ma‘lum davrga xos buyuk voqealar, o‘zgarishlar, ulkan qurilishlar, davlat to‘ntarishlari va xokazolarni sanab o‘tish mumkin.

XULOSA. Qisqa qilib aytganda, lug‘atshunos olimlar uchun ham frazeologik iboralarning milliy va madaniy xususiyatlarini o‘rganish foydadan xoli emas. Xorijiy til o‘qituvchisi uchun esa frazeologizmlarni o‘rganish so‘zsiz nutqni boyitish va uni go‘zal bayon qilishga yordam berishi bilan birga o‘quvchilarning chet tiliga bo‘lgan qiziqishini oshirishda bir mayoq sifatida qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berdiyrov X., Xo‘jayev T., Yo‘ldoshev B. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 1990
2. Burger H. Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin, 2003

3. Бушуй А.М. Очерки о фразеологической и фразеографической концепции

4. Fleischer W. Phraseologie der Deutschen Gegenwartssprache. Tübingen, 1997

5. Nazarov K. Xolmatova I. Tarjima nazariyasi va amaliyoti, Ma'ruzalar matni. Andijon, 2010, 68b.

6. Nazarov K. Kurzgefasste Deutsche Stilistik. Andijon, 2010 88b.

7. Umarxo'jayev M.E. Umumiy tilshunoslik. Andijon, 2010, 84 b.

8. Umarxo'jayev M.E. Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi, O'quv qo'llanma, Andijon, 2010, 152 b.

9. XAMIDOVA T. FUNKTIONALE KOMPETENZ ALS WICHTIGER BESTANDTEIL DER PRAGMATISCHEN KOMPETENZ //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2022. – T. 2. – №. 11. – С. 60-63.

10. Xamidova T. METHODEN ZUR ENTWICKLUNG DES HÖRVERSTEHENS BEI LERNENDEN //International Bulletin of Engineering and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 4. – С. 89-92.

11. Raxmatjonovna X. T. NEMIS TILI DARSLARIDA MUAMMOLI O'QITISHNI TASHKIL ETISH //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. Special Issue 4. – С. 93-96.